



## ТОПИНАМБУР (*HELIANTHUS TUBEROSUS* L.) PLANT ITSELF SPECIFIC CHARACTERISTICS

**Turdimurodova M.M**

2nd year graduate student,

b.f.n. associate professor **Muhammadjanova R.I.**

Termiz State University

[masumaturdimurodova73@gmail.com](mailto:masumaturdimurodova73@gmail.com)

**Annotation:** The article shows the uniqueness of the Jerusalem artichoke ,plant,and ways,to effectively use its raw materials given.

**Key words:***Helianthus tuberosus* L.,tuberoze,Jerusalem artichoke,wild sunflower seed, inulin,medicine,diseases.

## К ТОПИНАМБУРУ(*HELIANTHUS TUBEROSUS* L.) САМОМУ РАСТЕНИЮ ОСОБЫЕ ХАРАКТЕРИСТИКИ.

Турдимуродова М.М.

аспирант 2 курса,

б.н. доцент Мухаммаджанова Р.И.

Термезский государственный университет

[masumaturdimurodova73@gmail.com](mailto:masumaturdimurodova73@gmail.com)

**Аннотация:** В статье показаны уникальность растения топинамбура и пути эффективного использования его сырья данный.

**Ключевые слово:** *Helianthus tuberosus* L., тубероза, топинамбур, семена дикого подсолнечника, инулин, лекарство, болезни.



## TOPINAMBUR (*HELIANTHUS TUBEROSUS* L.) O`SIMLIGINING O`ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Turdimurodova M.M

2-kurs magistranti,

b.f.n. dotsent Muhammadjanova R.I.

Termiz davlat universiteti

[masumaturdimurodova73@gmail.com](mailto:masumaturdimurodova73@gmail.com)

**Anotatsiya:**Maqolada topinambur o`simligining o`ziga xosligi hamda uning xom-ashyolaridan samarali foydalanish yo`llari ko`rsatib berilgan.

**Kalit so`zlar:** *Helianthus tuberosus* L.,tugunak, quddus artishogi,yovvoyi kungaboqar yernok, inulin,dorivor,kasalliklar.

**KIRISH:** Topinambur - yernok (*Helianthus tuberosus* L.) — murakkabguldoshlarga mansub ko‘p yillik o‘simlik, tuganak mevali yemxashak ekini. Vatani — Shimoliy Amerika. Topinambur - O‘zining betakror sariq gullari bilan hovlimizni bezab turgan manzarali o‘simlik sifatida ko‘pchiligimizga tanish. Topinambur nafaqat manzarali o‘simlik, balki ming dardga shifo o‘simlik hamdir. Hatto qadimda amerikalik hindular topinamburni yoshlik eleksiri, uzoq umr ko‘rish vositasi deb qarashgan. **ASOSIY QISM:**Xalqimiz orasida esa yernok deb ataluvchi bu o‘simlikning “yovvoyi kungaboqar “ , “quddus artishogi” kabi ko‘plab nomlari mavjud. Ushbu o‘simlikga bejiz bunday nom berilmagan. Ushbu tugunakli o‘simlikning kimyoviy tarkibining o‘ziyoq kuchli davolovchi xususiyatga ega ekaniligini ko‘pchilik bilmasligi mumkin[1].


Murakkabgukdoshlar oilasiga mansub bo‘lgan ushbu ko‘p yillik o‘simlik sovuqqa chidamli o‘simlik hisoblanadi. Vegitatsiya qisqa kun o‘simligi bo‘lganligi



uchun shimoliy hududlarimizda ham yetishtirish mumkin. Uni yer ustki qismi  $-6^{\circ}\text{C}$  sovuqqa bardosh beradi. Topinambur biologiyasidagi muhim xususiyatlaridan biri shundaki, tugunagi muzlagandan keyin

erib yana o'z holiga qaytib hech qanday salbiy natijaga yuzaga kelmaydi. Madaniy o'simliklarga nisbatan tuproq turlariga moslashuvchan ya'ni sho'rxok va sho'rtob tuproqlarda yaxshi o'sadi. Topinambur tuproq boshqasiga talabchan 1 t hosil tuproqdan 3 kg azot 1,2-1,4 kg fosfor, 4,5 kg

kaliy olib chiqadi. O'simlik o'qsuv davri 120-200 kun. O'suv davrida 8-10 marta sug'orilsa hosildorlik ortadi [3, 2, 4,].



1-rasm. Topinambur o'simligining yalpi gullashi.

Odam iste'mol qilgan hamma ovqatdan foydalanmaydi, u hazm qilgani bilan yashaydi, ovqatning qolgani esa jigarni qiynaydi. Yernok o'zinig kompleks faoliyati hisobida jigar funksiyasiga faol yordam beradi. Glyukozani hazm bo'lishini yaxshilab, glikogen sintezini rag'batlantiradi. Demak, yuqori sifatli energetik almashinishga sababchi bo'ladi, bu esa oqsil, xolesterin, o't kislatalari va boshqalar sintezini yuqori darajada ko'paytiradi. Inulin me'da-ichak trakti faoliyatini o'z holiga keltiradi, bunga sorbent xossasi sababchi, ichak va qonda qisman toksik



moddalarni zararsizlantiradi, jigarni mehnatdan ozod qiladi va uning har xil kasalliklar va tashqi muhit zararli faktor ta`sirlariga qarshi kurashiga yo`l ochadi [5].

Topinambur tarkibida 20 foizgacha quruq modda bo`lib, uning asosiy qismini fruktoza polimerining gomologi bo`lgan inulin tashkil etadi. Polisaxarid shaklidagi inulin gidroliz qilinishi natijasida qandli diabete bilan kasallangan bemorlar uchun zararsiz bo`lgan fruktoza olinadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**

Ataboyeva X.N., Xudayqulov J.B., O`simlikshunoslik. Toshkent 2018.

2. Абдурахимова М. А. Dorivor o`simliklarning o`sishi va rivojlanishi va dorivor xususiyatlaridan foydalanish // Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D3. – С. 35-42.

3. Хайдаров М.М., Турдалиев А.Т., Саминов А.А.У. Энергетические особенности аминокислот в светлых сероземах // Тенденции развития науки и образования. – 2021. – № 80-3. – С. 45-47. – DOI 13.18411/trnio-12-2021-121.

4. O`G`Li S. A. A., Qizi N. D. S., Qizi A. M. I. DORIVOR ROZMARIN O`SIMLIGINI KO`PAYTIRISH VA UNDAN SOHALARDA SAMARALI FOYDALANISH // Science and innovation. – 2022. – Т. 1. – №. D6. – С. 79-82.

5. Высоцкий В.Г., Сафронова А.М., Ремесло Н.В. Пищевая ценность топинамбура и продуктов его переработки // Топинамбур и топинсолнечник проблемы возделывания и использования. Иркутск, 1990. С. 57-59.

6 [WWW.google.uz](http://WWW.google.uz)

7. [WWW.agro.uz](http://WWW.agro.uz)